

AHAMONIYLAR DAVLATI

Sadriyev Muhridin Husniddin o'g'li

Buxoro davlat pedagogika instituti, tarix yo'nalishi 1TARIX-23

sadriyevmuhridin172@gmail.com +998(90)081-88-63.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11004832>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahamoniylar davlatining sivilizatsiyasi tarixi bo'yicha ba'zi fikr va mulohazalar atroflicha yoritishga harakat qilinadi. Maqolada Ahamoniylar sulolasi, davlatining tashkil topishi, Ahamoniy hukumdorlarning istilochilik yurishlari, Ahamoniylar davri madaniyati va islohotlar haqida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Kir II (mil.avv 558–529 yy), Kampiz II, Ksenofont, Bexustun ustuni, Xarpag, Ekbatan, Midiya, Bobil, Lidya, Gerodod, Doro I (mil.avv 522-486yy).

ACHAMANID STATE

Abstract. This article will try to present in detail some thoughts and opinions on the history of the civilization of the Achaemenid state. The article examines the Achaemenid dynasty, the formation of the state, the aggressive campaigns of the Achaemenid rulers, the culture and reforms of the Achaemenid period.

Key words: Cyrus II (558-529 BC), Campiz II, Xenophon, Bexustun Column, Harpagus, Ecbatana, Media, Babylon, Lydia, Herodotus, Darius I (522-486 BC).

ГОСУДАРСТВО АХАМАНИДОВ

Аннотация. В данной статье будут подробно изложены некоторые мысли и мнения по истории цивилизации государства Ахеменидов. В статье рассматривается династия Ахеменидов, образование государства, завоевательные походы ахеменидских правителей, культура и реформы ахеменидского периода.

Ключевые слова: Кур II (558-529 до н. э.), Кампиз II, Ксенофонт, Бечустунская колонна, Гарпаг, Экбатан, Мидия, Вавилон, Лидия, Иродод, Дарий I (522-486 до н. э.).

Qadimgi davr siyosiy sahnasida muhim rol o'ynagan davlatlardan biri Ahamoniylar davlati qadimgi dunyoda o'z imperiyasiga asos solgan va o'z davrining yirik kuch markazlaridan biriga aylangan ushbu davlat tarixi hozirgi Eron davlatini janubidagi qadimgi fors viloyatiga to'g'ri keladi. Ushbu ahamoniylar sulolasidan bo'lgan Kir II tomonidan ahamoniylar davlatiga asos solingan. Forslarni ko'pchilik tarixchilar Midiyaliklar bilan adashtirishgan. Bunga sabab qilib ular o'rtasidagi qarindosh aloqalari bo'lganligi keltirilgan. Xususan Gerodot ham o'z tarix kitobida Forslarni Midiyaliklar deb atagan holatlar ham uchraydi. Chunonchi Gerodot mashhur yunon-fors urushlarini Midiya urushlari deb atagan.

Yozma manbalarning guvohlik berishicha Midiya podshosi Astiagning o'g'li bo'lmagan. Shu jihatdan yagona qizi Mandanaga bo'lajak munosib kuyovni sinchiklab tanlar edi. U Mandanani o'ziga qaram bo'lgan Kir I ning o'g'li Kambizga turmushga beradi. Kambiz midiyalik hukmdoriga o'zining sodiqligi haqida qasamyod qiladi. Gerodotning ta'kidlashicha, Astiag bir tush ko'radi tushida uning qizidan tok novdasi chiqib unga tegishli butun hududni o'rab oladi. Bu tushning tabirini uning koinlari qizining o'g'li nafaqat uning vorisi bo'ladi balki, uning o'rnida saltanatni boshqaradi deb bashorat qiladilar. Tez orada qizi Mandanadan o'g'il dunyoga keladi.

Kambiz o'z otasi sharafiga Kir deb nom beradi Astiag o'g'il farzand dunyoga kelganini eshitib uni o'ldirish payiga tushadi. Biroq o'zi o'ldirib gunohiga qolishni istamaydi va uni o'ldirishni nufuzli amaldor Xarpagni chaqirtirib bolani o'ldirishni buyuradi. Xarpag ham gunoh qilgisi kelmay Astiag singari bu ishni bajarishni boshqa birovga topshiradi. Shuning uchun u Mandananing o'g'lini o'ldirmay, Astiagning cho'ponlaridan biriga beradi. Keyinchalik sir fosh bo'lgandan keyin Astiag Kirning jonini saqlab qoladi. Amaldor Xarpag jazolanadi lekin, podshoga qarindosh bo'lgani uchun o'ldirilmagan. Kir Forsga ota-onasi huzuriga qaytarib berilgan. Uning oilasi Ahamoniylar fors urug'lari ichida eng yirik va eng qudratli pasargadlar qabilasiga tegishli bo'lgan.

Ko'p o'tmay forslarga nisbatan midiyaliklarning zulmi yanada kuchaydi. Shu vaqtda Xarpag bilan bir qatorda Midiya aristokratiyasining aksariyat qismi Kir II vorisligini qo'llab-quvvatlar edi. Uzoq tayyorgarlikdan so'ng Kir va uning lashkarlari Ekbatan tomon harbiy yurishini boshlaydi. Midiya qo'shinlariga Xarpag boshliq etib tayinlanadi. U esa o'z navbatida Kir II tomoniga o'tib ketadi. Astiagga sodiq bir guruh askarlar tarqalib ketadi. Podsho Astiag asirga olinadi. Kir II Ekbatanni istilo qiladi va mil.avv 550-yil o'zini Midiya va Eronning podshosi deb elon qiladi (g'arb tarixchilari bu voqeani mil.avv 558-yil deb ham ta'kidlaydilar). Natijada Midiya yerlari Fors davlatining viloyatiga aylantiriladi. Kir II bobosini o'ldirmadi balki uni yaxshi sharoitda o'z ajali bilan o'lgunga qadar tutqunlikda ushlab turadi. Keyingi davrlarda Kir II istilochilik harakatlarini olib bordi. Dastlab Astiag vafotidan so'ng lidiyalik va midivaliklar bilan tuzilgan sulh shartnomasi bekor qilinadi. So'ngra Lidiyaga qarshi harbiy harakatlar boshlanadi.

Ikki davlat armiyasi Galis daryosi yaqinida uchrashadi va uzoq vaqt natijasiz jang qiladi. Pirovard natijada Krez Bobildan yordan so'rash maqsadida chekinadi. Kir II Lidiyaga bostirib kiradi va oxir oqibatda Lidiya qo'shinini poytaxt Sard yaqinida qurshab oladi. Kir II ko'blab istilochilik yurishlari olib boradi va bir qancha hududlarni o'z imperiyasi tarkibiga qo'shib olishga erishgan. Kir II istilochilik natijasida midiyaliklarga forslarning qaramligiga chek quyib midiyani qaram davlatga aylantiradi. Kir II Bobil, Midiya va boshqa davlatlar bilan munosabati va ularga qaratilgan istilochilik yurishlari haqida Ksenofont o'z asarida bayon etgan. Sak massagetlar bilan bo'lgan jang va undagi voqealar haqida Gerodot o'z kitobida yozib qoldirgan.

Gerodotning aytishicha Kir II ushbu jangda halok bo'lgan va jasadini dafn etish uchun Pasargadga qaytarib olib ketadilar. Kir II vafotidan so'n taxtga, mil.avv. 530-yil avgust oyida Fors taxtiga Kambiz (Qo'mbiz) chiqdi. Hukumronligining to'rtinchi yilida Misrga qarshi yurish boshlaydi. Kambiz o'z hokimiyatini mustahkamlab Misrga yurishga tayyorlana boshladi. Misr fir'avni Amasis (Yaxmos II) buvaqtda tashqi xavfni oldini olish uchun mamlakatning iqtisodiy-harbiy qudratini mustahkamlashga kirishdi. U yunon yollanma askarlarini o'z qo'shini tarkibiga kiritdi. Fir'avn Kipr, Lidiya va Bobil bilan ittifoq tuzgan edi. Lekin Lidiya, Bobil tez orada Kayxusrav tomonidan bosib olindi. Kambis Misrga katta qo'shin va flot bilan yurish boshladi.

Shu vaqtda yaxshi tashkilotchi fir'avn Amasis vafot edi. Yangi fir'avn Psammetix III Misrni forslar bosqinidan saqlab qola olmadi. Yollanma yunon qismlari sarkardasi Fanes xoinlik qilib forslar tomoniga o'tib ketdi. Pelusiya yonidagi jangda va Memfis shahri himoyasida misr qo'shinlari kuchli qarshilik ko'rsatdilar lekin misrliklar yengildilar. Forslar mamlakat poytaxti Memfisni bosib olib ikki ming kishini qirib tashladilar. Psammetix III ning o'g'li ham qatl qilindi. Lekin Psammetixning o'ziga Kambiz shafqat ko'rsatdi.

Mil.avv 525-yil avgust oxirida Kambiz Misr fir'avni deb e'lon qilindi. U Misr urf-odati bo'yicha toj kiydi va yangi XXVII sulolaga asos soldi. Misrni bosib olgach Kambiz janubga Nubiyaga qarshi yetarlicha tayyorgarlik ko'rmay yurush boshladi. Yetarlicha oziq-ovqatga ega bo'lmagan qo'shin suvsiz sahroga tushib qoldi. Qo'shinda odamxo'rlik boshlanib Kambiz chekinishga majbur bo'ldi. Harbiy yurish muvofaqiyatsiz tugadi. Kambizning og'ir vaziyatga tushib qolganidan foydalanib misrliklar qo'zg'olon ko'tardilar. Kambiz (mil.avv. 524-yil) Memfisga qaytib Misrda boshlangan qo'zg'oloni bostirdi. Kambiz uch yil Misrda qolib ketdi.

Mil.avv 522-yil mart oyida uning kichik ukasi Bardiya qo'zg'olon ko'tarib Eronda podsho bo'lgani to'g'risidagi xabarni oldi. Kambiz Eronga qaytish uchun yo'lga chiqib sirli holda vafot qildi (mil.avv 522-yil). Kambizning vorisi Doro I ning Behistun qoya yozuvlarida bayon qilingan rasmiy farazlariga ko'ra Kambiz Misrga yurishiga qadar o'zining ukasi Bardiyadan shubhalanib uni maxfiy ravishda o'ldirishga buyruq beradi. Mag Gaumata ismli kimsa bundan foydalanib o'zini Bardiya deb e'lon qiladi va u 522-yil 2-martda Bardiya nomi bilan taxtga o'tiradi. Bardiya Gaumata qaram xalqlarni o'ziga moyil qilish uchun soliq va harbiy majburiyatlarni uch yilga bekor qiladi. U fors urug'-zodagonlarining imtiyozlarini bekor qilish ularning iqtisodiy va siyosiy hukmronligini tugatish uchun harakat qildi. Shu sababli, u mamlakatdagi keng xalq ommasini qo'llab-quvvatlashiga erishadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra Gaumata to'g'risidagi faraz asosli emas. Hokimiyatga haqiqiy Bardiya kelgan. U yetti oylik boshqaruvdan so'ng, 522-yil 29-sentabrda yetti fors urug'ining aslzoda vakillari bo'lgan fitnachilar tomonidan o'ldirilgan.

Fitnachilardan biri 28 yoshli Doro (mil.avv 522–486-yillar) podsho taxtiga o'tirdi.

Doro I mil.avv. VII–VI asrlarda Kayxusravgacha hukmron bo'lgan Ahmoniy podsholari avlodidan edi. Doroning o'zi fors urug' aslzodalari oliy tabaqasiga mansubligi tufayli Bardiya bekor qilgan zodagonlarning imtiyozlarini qayta tiklaydi. Dor I o'zi haqida Behistun yozuvlarida 1-ustun 1-3 qatorida "Men Doro ulug' shahanshoh Fors hukmdori, mamlakatlar hukmdori Vishtasp o'g'li, Arsham nevarasi, Ahamon" ekanligini qayt etadi. Behistun yozuvi 1-ustun 8-11 qatorida u o'z naslidan sakkiz kishi hukmdor bulgani o'zi esa to'qqizchi hukmdor ekanligini bayonini beradi.

Doro I ning hukmronligining ilk davrlarida mamlakatdagi qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi va Behustun yozuvi qayt etilishicha bu qo'zg'olonning sabablari ma'lum bir shaxslarning mustaqil hokimlikka davolari sabab ekanligi qayt etiladi. Doro I bu qo'zg'olonlarni muvaffaqiyatli bostiradi va hukmronligining uchinchi yilida saklar ustiga yurish qiladi. Behustun yozuvi 5 ustun 20-30 qatorida shunday yoziladi. "Shoh Doro ayturki: keyin men qo'shin bilan Sakaga jo'nadim. Keyin cho'qqili qalpoq kiyuvchi saklar jang qilish uchun chiqdilar. Men suv chegarasiga yetibkelganimda, utomonlarning butun qo'shini birgalikda keldi. Keyin men saklarning bir qismini yer bilan yakson qildim, boshqalari ularning Skunxa ismli yo'l boshchisini asirga oldi va mening yonimga keltirdilar. Shunda men o'z xoxishim bo'yicha boshqa kishini ularning yo'l boshchi qildim. Keyin mamlakat meniki bo'ldi". Keyingi davrlarda Doro I istilochilik yurishlarini yunon koloniyalariga yunaltiradi buning oqibatida yunon-fors urushlari bo'ladi. Doro I faqatgina istilochilik urushlari olib bormaydi balki o'z imperiyasida islohotlar va yangi tartib joriy etadi.

Xususan Doro I mil.avv. 517-yildan so'ng Doro I butun mamlakat miqyosida yagona pul birligi – fors pul tizimining asosi 8,4 gr og'irlikdagi tilla tanga – darikni joriy qildi, bu esa savdo uchun muhim ahamyat kasb etadi shuningdek poytaxt Suzada o'rta yer dengizi bo'yiga qadar

cho'zilgan shoh yo'li degan savdo yo'li quriladi, mamlakatni satrapliklarga bo'lib tashlaydi va harbiy birliklarga ajratadi qo'shinni qaytadan tashkil etadi. U ma'muriy-hududiy, moliya va harbiy islohot o'tkazdi. Doro I islohotlari, eng avvalo, bosib olingan hududlar ustidan nazoratni amalga oshirish va davlat boshqaruv tizimini yaratish, soliqlar yig'imini tartibga solish va uning miqdorini oshirishga xizmat qildi. Islohotlar bir necha yilda amalga oshirildi. Bu islohotlarni amalga oshirish natijasida Bobil, Misr va boshqa hududlarda yangi ma'muriy tizim vujudga keldi va Ahmoniylar davlatining oxirgi yillarigacha boshqaruv tizimida biror sezilarli o'zgarish yuz bermadi.

Doro I islohotlari agrar sohada katta o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Qaram xalqlarning yerlari tortib olinib, podsho oila a'zolariga, fors aslzodalari va amaldorlariga meros qilib beriladi.

Bunday yer-mulklar soliqdan ozod qilingan. Podsho tomonidan alohida xizmat ko'rsatgan qo'shinlarga beriladigan yerlar merosiy bo'lib, soliqdan ozod qilingan. Bunday imtiyozga ega kishilar qaram viloyatlarda sud ishlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lganlar.

Ahmoniylar savdo yo'llarini rivojlantirishga katta e'tibor berdilar. Doro I o'z davlati viloyatlarining Hindiston bilan dengiz aloqalarini o'rnatish imkoniyatlarini bilish uchun mil.avv 518-yil dengizchi Skilakning dengiz ekspeditsiyasini tashkil etdi. Skilakning kemalari Hindiston orqali Hind okeanigacha suzib borib, Arabistonni aylanib o'tib, Qizil dengiz qirg'oqlariga yetib bordi. Misr Yunonistonga g'alla, gazlama eksport qildi. Misrda fir'avn Nexo davrida qurilishi tugallanmay qolgan 84 km li kanalni ahamoniylar bitkazadi. Uch qit'aga tarqalgan fors davlatining ulkan hududida turli etnoslarning qo'shib ketish jarayonlari, imperiyaning turli hududlari o'rtasidagi aloqalarning kuchayishi natijasi edi. Chet elliklar mahalliy xalqlar bilan qo'shib ketdilar. Ularning urf-odat, an'alarini qabul qildilar. Davlat hokimiyati imperiya tarkibida bo'lgan turli xalqlarning diniy e'tiqod, madaniyatlari rivojlanishi va bir-biriga yaqinlashuviga to'sqinlik qilmadi. Forslarning eng katta madaniy yutuqlaridan biri o'ziga xos mixxatning yaratilishi bo'ldi. Fors mixxati akkad alfavitidan farq qilgan holda bor yo'g'i 40 belgidan iborat bo'lib, deyarli alfavitli yozuv bo'lgan. Eron Ahmoniylar davrida o'zining noyob madaniyatini yaratdi. Qadimgi fors yozuvi 43 belgidan iborat bo'lib, asosan, podshoning tantanali yozuvlari uchun foydalanilgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, ahamoniylar davlatining vujudga kelishi va uning imperiyaga aylanishi, qadimgi dunyo siyosiy sahnasida ahamoniylar sulolasi forslarni midiya davlatga bo'lgan qaramligidan ozod bo'lishi, mustaqil davlatchilik tashkil topishi va uning istilochilik harakatlari qadimgi dunyo siyosiy tarixiy sahnasida muhim rol o'ynashi, tuli millatlarni o'z ichiga olgan imperiyaga aylanishi yo'lidagi harakatlari, amalga oshirilgan islohotlar davlatning yirik o'z davrining kuch markazilaridan biriga aylantirdi.

Shuningdek, Doro I mamlakatda amalga oshirgan islohotlari muhim ahamiyat kasib etganligi, uning harakatlari natijasida Shoh yo'li degan savdo yo'li qurilishi o'sha davr xalqaro va mahalliy savdogarlar uchun muhim ahamiyat kasb etganligi namoyon bo'ldi. Doro I ning taxtga kelishi ham diqqatga lohiq u shahanshoh bo'lgan payt ahamoniylar uchun o'g'ir bir davr vujudga kelgan edi mamlakatda isyonlar va mamlakatdan ajralib chiqish harakatlari boshlangan bir palla edi Doro I ahamoniylar imperiyasidagi bunday holatlarni bartaraf eta oldi va ahamoniylar davlatini saqlab qola oldi.

Yana bir ahamoniylarning Kir II, Kambiz ayniqsa Doro I davrida faol istilochilik harakatlari olib borildi buning natijasida imperiya sarhadlari shimoli-sharqda Sirdaryo, janubi-

sharqda Hindiston g'arbda O'rta yer va Qizil dengizgacha cho'zildi. Mohirona davlatchilik siyosat tufayli ahamoniylar o'z imperiyasi sarhadlarini Aleksandr Makedonskiy istilosigacha o'z qo'llarida saqlab qoldilar.

REFERENCES

1. Jahon Tarixi; Qadimgi sharq , Yunoniston, Rim . Ravshan Rajabov 223-224 bet, 235-bet, 237-238 bet
2. Jahon Tarixi (1-tom,1-jild) D.J. Urakov va boshqalar. 170-175 betlar.
3. Ahamoniylar davri yozma yodgorliklari. <http://mavzu-ahamoniylar-davrining-oxirgi-monumental-sanati-yodgorlik.html?page=4>
4. Salimovich, Murodov H. "Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems." *International Journal on Integrated Education*, vol. 5, no. 6, 2022, pp. 298-302.
5. Salimovich, M. H. (2023). MARKAZIY OSIYO TURIZM SANOATI RIVOJLANISHIDAGI YUTUQ VA MUAMMOLAR. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(4), 175-184.
6. Мурадов, Х. (2023). ОБЗОР ИСТОРИИ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences.*, 3(S/8). <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3SI8Y2023N05>
7. Salimovich, M. H. (2023). BUXORO TURIZMI RIVOJIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 115-122.
8. Ashurova, G. S., & Murodov, H. S. (2023). ISSUES OF EDUCATION IN THE MIDDLE AGES (IX-XII) CENTURIES AND DEVELOPMENT HISTORY. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(12), 238-240.
9. Ismigul, I. & Halim, M. (2023). Mustaqillik arafasida Ozbekistonda turizm sohasining holati. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR*, 1(5), 256-266.
10. Murodov Halim Salimovich. (2023). BUXORO TURIZMI VA MILLIY HUNARMANDCHILIK. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(12), 93–96. Retrieved from <https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/149>
11. Salimovich, M. H. (2024). SANATORIYA–KURORT MUASSASALARI FAOLIYATINING BUXORO TURIZMI RIVOJIDA ORNI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 199-204.
12. Salimovich M. H. (2024). The Role of the Cultural Sector in the Development of Bukhara Tourism. *Miasto Przyszłości*, 45, 729–735. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2725>
13. Murodov, H. (2024). VISA POLICY DURING THE ACTION STRATEGY PERIOD. *Modern Science and Research*, 3(2), 637–644. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30326>

14. Халим, М. (2022). РАЗВИТИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ И ЕГО НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари / Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук / Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13. <https://doi.org/10.47390/B1342142022N1>